



## KORXONALARDA ASOSIY VOSITALARDAN VA ISHLAB CHIQARISH ASBOB-USKUNALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNI TAHLIL QILISH

**Turayeva Gulizahro**

Guliston Davlat Universiteti  
o'qituvchisi

**Timurova Durдона**

Guliston Davlat Universiteti  
talabasi

**Annotatsiya:** Bozor munosabatlari sharoitida korxonalarining asosiy vositalari bilan yetarli darajada ta'minlanganligini o'rganish bilan bir qatorda, ularning samaradorlik ko'rsatkichlarini o'rganish asosiy o'rinda turadi. Chunki, korxonalar asosiy vositalar bilan yetarli darajada ta'minlangan bo'lsa-yu, lekin ulardan samarali foydalanilmasa, u holda korxonaning samaradorligi pasayib ketadi. Shu sababdan mahsulot ishlab chiqarish dasturining muvaffaqiyatli bajarilishida nafaqat asosiy vositalarning tarkibi, tuzilishi, texnik, holati, balki ulardan samarali foydalanishga ko'p jihatdan e'tibor qaratilish lozim.

**Kalit so'zlar:** asosiy vositalar, samaradorlik, asbob-uskunalar, foydalilik koeffitsienti, integral koeffitsienti

**Kirish:** Hozirgi kunda asosiy vositalardan foydalanish va ularning samaradorligiga baho berish moliyaviy tahlilning zarur shartlaridan biri hisoblanadi. Asosiy vositalardan foydalanishning umumlashtiruvchi ko'rsatkichi bo'lib vositadan olinadigan samara hisoblanadi. Masalan, korxonaning yillik mahsuloti 100 million so'mni tashkil etsin, asosiy ishlab chiqarish vositalarining o'rtacha yillik qiymati esa 50 million so'm deylik. Bunday holda foydadan olinadigan samara 2 so'mga teng bo'ladi. Demak, vosita samarasi ko'rsatkichini aniqlash uchun tovar mahsuloti yoki sof mahsulot hajmini asosiy ishlab chiqarish vositalarining o'rtacha yillik qiymatiga bo'linadi. Buni quyidagi formula orqali ifoda qilish mumkin:

$$F_s = \frac{T.M}{A_f}$$

Bunda:  $F_s$  - asosiy vositalardan olinadigan samara;

$T.M$  - tovar mahsuloti hajmi;

$A_f$  - asosiy ishlab chiqarish vositalarining o'rtacha yillik qiymati.

Asosiy vositalarning samaradorlik ko'rsatkichlari korxonalar xo'jalik faoliyatiga baho berishning muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida olinadi. Ularning qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin.



## Asosiy vositalarning samaradorlik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar nomi	Hisoblanish tartibi
Sanoat ishlab chiqarish fondlari qaytimi	Mahsulot hajmi $F_k = \frac{\text{Mahsulot hajmi}}{\text{Sanoat ishlab chiqarish fondlari o'rtacha yillik qiymati}}$
Mashina va uskunalarning qaytimi	Mahsulot hajmi $F_k = \frac{\text{Mahsulot hajmi}}{\text{Mashina va uskunalarning o'rtacha yillik qiymati}}$
Sanoat ishlab chiqarish fondlari sig'imi	Sanoat ishlab chiqarish fondlari o'rtacha yillik qiymati $F_k = \frac{\text{Sanoat ishlab chiqarish fondlari o'rtacha yillik qiymati}}{\text{Mahsulot hajmi}}$
Mashina va uskunalarning sig'imi	Mashina va uskunalarning o'rtacha yillik qiymati $F_k = \frac{\text{Mashina va uskunalarning o'rtacha yillik qiymati}}{\text{Mahsulot hajmi}}$

Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish va uning holatiga baho berishga iqtisodiy tahlilda a'lohida ahamiyat beriladi. Korxonada ishlab chiqarish quvvati deganda, uning to'la ish bilan bandlik holatiga aytiladi. Bu holat nafaqat mahsulot ishlab chiqarish darajasiga, balki uning xarajatlar tarkibiga, moliyaviy natijaviyligiga ham ta'sir etuvchi birlik sifatida qaraladi. Ishlab chiqarish quvvatlari va uning foydalanish darajalariga baho berish asosida korxonaning joriy davrdagi iqtisodiy potentsiali hamda uni maqsaddi boshqaruvi belgilanadi.

Tahlilda asosiy vositalarning samaradorlik ko'rsatkichlari va ularning ta'sir etuvchi omillari ikkita tarkib bo'yicha o'rganiladi.

1. Asosiy vositalarning samaradorligi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili.

2. Asosiy vositalar va ulardan samarali foydalanish ko'rsatkichlarining mahsulot hajmining o'zgarishiga ta'sirining tahlili.

Asosiy vositalarning samaradorlik ko'rsatkichlari va ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar qatoriga quyidagilar kiritiladi:

Fond qaytimi (sig'imi) va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar bo'lib:


- mahsulot ishlab chiqarish hajmi va uning o'zgarishi;
- asosiy fondlar o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi.



Mahsulot hajmiga ta'sir etuvchi mehnat vositalari bilan bogliq bo'lgan omillar qatoriga quyidagilar kiritiladi:

- asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi;
- fond qaytimi (sig'imi)ning o'zgarishi.

**Xulosa:** Korxonada asosiy vositalarning samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirish uchun asosiy vositalarning faqat korxonaga ish beradigan qisminigina olish, shu bilan birga asosiy vositalarning ortiqcha qismini ushlab turmaslik; eskirgan va ma'naviy talabga javob bermaydigan asosiy vositalarni hisobdan chiqarish; asosiy vositalarni ta'mirlash borasidagi choralarni ko'rish, texnik qarov shakllantirish; eskirgan asosiy vositalarni yangi va ilg'or texnika va texnologiyalar bilan almashtirish, avtomatlashtirilgan tizimni yaratish, mexanizatsiyalashni kuchaytirish lozim. Undan tashqari eksplutatsiya yo'nalishiga ham e'tibor qaratish, shuningdek ishlab chiqarish hajmiga qarab asosiy vositalarni texnik holat va harakatini boshqarish, asosiy vositalar qarovi yuzasidan mas'ul shaxslarni ajratish, asosiy vositalar bo'yicha javobgarlik markazlarini belgilashlarni tavsiya sifatida keltirib o'tish mumkin.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A.B.Muxametov. B.Matrasulov.G.Turayeva T.:Buxgalteriya hisobi darslik. Ziyο nashr. 2023.-347 b
2. A.B.Muxametov. U.Chorshanboyev. G.Turayeva T.:Boshqaruv hisobi darslik . Ziyο nashr. 2024.-169 b
3. Muxametov, A., Matrasulov, B., Chorshanbiyev, U., & Abduvoxidov, A. (2024). QAYTA IJARAGA OLISH UCHUN ASOSIY VOSITALARNI SOTISH HISOBI. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 2(2), 182-191.
4. Madinabonu, A., Nurjahon, N., & Mehriniso, M. (2023, April). BUXGALTERIYA HISOBINING MILLIY STANDARTI. In " *Conference on Universal Science Research 2023*" (Vol. 1, No. 4, pp. 93-95).
5. Taxirovna, A. S. (2023). EXPLORING LINGUISTIC AND CULTURAL CHARACTERISTICS IN THE TRANSLATION OF STORIES: ENGLISH AND UZBEK PERSPECTIVES. *ENG YAXSHI XIZMATLARI UCHUN*, 1(6), 59-62.
6. Gulizaxro, T., Mavlyuda, I., Shaxnoza, A., & Hilola, S. (2023, April). Buxgalteriya hisobi fanini rivojlanishida raqamlashtirishni takomillashtirish. In " *Conference on Universal Science Research 2023*" (Vol. 1, No. 4, pp. 102-104).
7. qizi To‘yeva, M. S. (2022, November). YANGI O‘ZBEKISTON ORIFA AYOLLARI VA G‘ARB AYOLLARINING JAMIYATDAGI MAVQEYI VA ULARNING HUQUQLARI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 74-81).
8. Рахматуллаева, Ф., & Шаробиддинов, А. (2023). YALPI HUDUDIY MAHSULOT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(S/4), 140-146.
9. Taxirovna, A. S. (2024). Features of Uzbek and English story translations. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 2(2), 202-208.
10. Sharipova, S. (2023). THE ROLE OF COACHING TECHNOLOGY IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING AND ABILITIES OF ADULTS IN LANGUAGE LEARNING PROCESS. *Solution of social problems in management and economy*, 2(13), 5-12.